

**OTLARDAGI EGALIK KATEGORIYASI FUNKSIONAL-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TADQIQI**

**Furkatova Maxliyo To'liqin qizi**

*SamDu doktranti*

O'zbek tilida ma'lum bir narsaning uch shaxsdan biriga tegishlilikini ifodalovchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar sistemasi egalik kategoriyasi deyiladi. Tegishlilik ma'nosini chiqarishda foydalaniladigan qo'shimchalar esa egalik affikslari sanaladi. Bunda affikslar nafaqat egalikni, balki birlik yoki ko'plik kabi tushunchalarni ham ifodalab keladi. Misol uchun daftaram – daftarlaram. Biz farqlashimiz lozim bo'lgan joyi shuki, bu ko'plik va birlik narsaga (daftar) nisbatan emas, narsaning egasi yoki egalariga nisbatan ishlatiladi. Bu jarayon kelishik kategoriyasi va olmosh so'z turkumi bilan yanada aniqroq bo'ladi. Mening daftaram – birlik. Bizning daftarlaram – ko'plik. Egalik affikslari bir shaxsga yoki ko'p shaxslarga tegishlilikdan tashqari otga qo'shilish jarayonida ham biroz farqlanadi. Bunda agar otning oxirgi harf unli harfi bilan tugab unga egalik affiksi qo'shiladigan bo'lsa:

Shaxslar	Birlik	Ko'plik
<b>I shaxs</b>	Oyna + m - my mirror	Oyna + miz - our mirror
<b>II shaxs</b>	Oyna + ng - your mirror	Oyna + ngiz - your mirror
<b>III shaxs</b>	Oyna + si - his/her mirror	Oyna + si - their mirror

Otning oxirgi harfi undosh harf bilan tugab unga egalik affiksi qo'shiladigan bo'lsa:

Shaxsla	Birlik	Ko'plik
<b>I shaxs</b>	Uy + im - my house	Uy + imiz - our house
<b>II shaxs</b>	Uy + ing - your house	Uy + ingiz - your house
<b>III shaxs</b>	Uy + i - his/her house	Uy + i - their house

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki o'zbek tilida egalik allamorflardan iborat bo'lgan bir paytda ingliz tilida bu morfemaning o'zi yo'q va bu vazifa egalik olmoshi bilan bajarilayapti. Sababi ingliz tilida alohida egalik kategoriyasi yo'q va bu funksiyani nisbatan ingliz tilidagi egalik olmoshlari (my – mening, your – sening, his – uning, her – uning, its – buning, our – bizning, their - ularning) bajaradi. Bu ona tilimizdagi qaratqich kelishigi qo'shimchasi – ning ga teng bo'lib, o'zbek tilidagi egalik kategoriyasi funksiyasini to'la qonlik bajarib bera olmaydi. Misol uchun, *mening kitobim*

so'zi *my book* kabi tarjima qilinadi. *Mening* – *my* so'ziga teng kelsa, *kitobimdagi* – *im* qo'shimchasi ingliz tilida hech qanday qo'shimchalarsiz ma'no jihatdan *my* orqali ifodalanadi. Bu esa ingliz tilining morfologik fleksiyaning kambag'alligi sababli ko'p grammatik kategoriyalarning ifodalanishida sintaksisning aktiv ishtirok etishiga va so'z tartibining asosiy grammatik signallar qatoriga o'tishiga yaqqol dalil bo'la oladi. Ya'ni *my book* birikmasida avval *my* birinchi kelishi shart va shunda *mening kitobim* ma'nosini chiqarib bera olamiz. Bundan tashqari *my book* birikmasi sintaksis jihatdan bog'langan va o'zaro birikib grammatik ma'nolarni (kitob aynan menga tegishlilik ma'nosini) chiqarib berayapdi. Ingliz tili aynan mana shu xususiyatlari bilan nafaqat o'zbek tilshunosligidan, balki hind-yevropa va boshqa german tillari sistemasidan ma'lum darajada farq qiladi <sup>7</sup>.

Bu kategoriyaning ingliz tilidan yana bir farqi egalik affikslarining boshqa so'z turkumlari bilan ham kelishidadir. Yurish-turishing (fe'lga), barchang (olmoshga), shunaqasi (olmoshga), borganim (fe'lga), yashili (sifatga). Barchasi, beshovi dagi qo'shimchalar bundan mustasno va ulardagi –si, -i qo'shimchalari egalik affikslariga o'xshasada bu kategoriya qo'shimchalariga kirmaydi. Kishilik olmoshlariga kiruvchi so'zlar (men, sen, siz, sizlar, u, bu, ular, bizlar) ham egalik qo'shimchasi bilan birga kela olmaydi. Ko'pincha egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigini olgan so'z bilan birga qo'llaniladi: *uning kiyimlari, sizning uyingiz*. Ammo she'riy uslubda yozilgan misralarda qaratqich kelishigini olgan so'z tushib qolganini ko'ramiz: *Yoding bilan yashayman ey suyukligim!* Bu yerda aslida sening yoding bilan kabi bo'lishi kerak edi, ammo she'riy bo'yoqdorlik, qisqalik va hissiy urg'uni qo'yish maqsadida tushirib qoldirilayapdi. Demak qaratqich kelishigini olgan so'z va egalik qo'shimchasini olgan so'z doimo birga qo'llanilmasada, bir-biriga uzviy bog'liqdir va har doim biri ikkinchisini talab qiladi. *Mening yurt, sening hamyon...* (so'zlar bir-biriga bog'lanmagan). Xuddi shu tushuncha ingliz tilida ham mavjud. Qaratqich kelishigiga teng bo'lgan egalik kelishigi so'zlari *my, your, our, their, his, her, its* o'zidan keyin doim o'zini talab qiladi. Yoki *mening ruchkam* demoqchi bo'lganimizda biz bu tushunchani egalik kelishiklarisiz ifodalab berolmaymiz. *Pen (ruchka) – my pen (mening ruchkam)*. Ammo egalik qo'shimchasi o'zi qo'shilib kelgan so'zning sintaktik vazifasini ko'rsatmaydi. <sup>8</sup>.

Agar ko'plikdagi kishilik olmoshi qaratqich kelishigi qo'shimchasi bilan kelsa, egalik qo'shimchasi qo'llanishi ham qo'llanilmasligi ham mumkim.

<sup>7</sup> J. Bo'ronov. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1973. – 279 b

<sup>8</sup> N.Turniyozov, A. Rahimov, O'zbek tili. O'quv – uslubiy qo'llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b

Misol uchun, *bizning ilmiy ish – bizning ilmiy ishimiz, bizning reja – bizning rejamiz*. Shu o'rinda shuni aytish joizki, *bizning ilmiy ish* jumlasidagi *biz* aslida ko'plikni emas I shaxs III shaxs bo'lib kamtarlik ma'nosida gapirayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu ma'no *bizning ilmiy ishimiz* birikmasida unchalik yaqqol namoyon bo'lmaydi.

Qarataqich kelishigidagi so'zdan tashqari egalik affikslari ot yoki otlashgan so'zlarga qo'shilgan holda chiqish kelishigidagi so'z bilan ham birga kelishi mumkin: *ulardan ikkitasi, ranglardan qizili, bolalardan kichigi, talabalardan aqllisi*. Bunda faqat birikmalarda qismdan ajratib olish va ajratib olingan qismini ta'kidlash ma'nolariga ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrimizga biroz qarshi ravishda egalik qo'shimchali so'z bosh kelishikdagi so'z bilan keladi (yuqorida egalik affiksli so'z doim yashirin yoki yashirin bo'lmagan holatdagi qarataqich kelishigidagi so'z bilan birga qo'llaniladi deb ta'kidlagan edik), ammo bunda izohlovchi - izohlanmishli birikma vujudga keladi: *Dajla daryosi, "Darakchi" gazetasi, yoqilg'i shaxobchasi*. Bosh kelishigi deyishimizning yana bir sababi yuqoridagi so'zlarga – ning (qarataqich kelishigi qo'shimchasi) ni qo'yib bo'lmasligida deb izohlasak ham bo'ladi.

Otlarga va otlashib kelgan so'zlarga egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalarining ham o'z tartibi bor. Bunga ko'ra, odatda, avval ko'plik (-lar) keyin egalik qo'shimchalari (-i, -imiz, -si, -im) va so'nggida kelishik qo'shimchalari qo'shiladi. *Erkatoylarimga, bolalarimdan, ko'chalarimizning, suzuvchilarini, buzuvchilaringga*. Ammo bu tartib biroz o'zgarib so'zga berilayotgan ma'no qarindoshlik, yaqinlik va hurmat kabi ma'nolardan tarkib topadi. Bu avval egalik affikslari va keyin ko'plik formasi kelishi bilan izohlanadi. Misol uchun, *oyimlar, akamlar, amakimlar*. Ko'rib turganingizdek bu qoida hamma so'zlarga ham mos kelavermaydi (*erkatoyimlar, bolamlarga*). Asosan qarindoshlik ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan bu hodisa yuz beradi deb kamina fikr bildirmoqda<sup>9</sup>.

Egalik affiksi o'zi qo'shilgan so'zda egalik funksiyasini bajarish yoki bajarmasligiga ko'ra (buni yana o'zi qo'shilgan o'zak doirasida ishlatilishiga ko'ra deb ham atashimiz mumkin) ikki turga bo'linadi:

1) Egalik affiksi o'z vazifasini bajaradi va grammatik mohiyat – mazmunini saqlaydi. Bunda asosan otlashga so'zlar, sifat doshlar, harakat nomi va olmoshlar ishtirokida bo'ladi: *yozganim, yozishing, barchang* va boshqalar

<sup>9</sup> Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Xojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov. Hozirgi O'zbek adabiy tili I qism. – T., "O'qituvchi", 1980. – 443 b.

2) Egalik affiksi Grammatik ma'nosini yo'qotgan bo'ladi va o'zi qo'shilgan so'z bilan boshqa so'z turkumiga o'tadi: *ertasi, kechasi (ravish), chamasi, yaxshisi (modal so'z)*. Shuning uchun *yaxshisi, chamasi* so'zlaridagi – si qo'shimchasini egalik affiksi deb ayta olmaymiz.

Egalik affikslarining har birida (I shaxs, II shaxs, III shaxs) o'ziga xos semantik ma'nolari bor. Bunda I va II shaxs egalik qo'shimchalarining birlik shakli monosemantik, ya'ni bitta ma'nolik, ko'plik shakli esa polisemantik – ko'p ma'no turli hisoblanadi: *bog'im, bog'ing* (I shaxs – birlik – birlik ma'nosi bilan), *to'yimiz – bizning to'yimiz, to'yimiz – mening to'yim* (II – shaxs – ko'plik – ko'plik va modal ma'nolari bilan birga). III shaxs formalari birlik va ko'plikda bir xil ifodalanadi: *uning mashinasi, ularning mashinasi*. III shaxs egalik affiksi ma'no jihatdan I va II shaxs formalaridan biroz farqlanadi. Ya'ni I va II shaxs qo'shimchalari kishiga nisbatlab aytilsa, III shaxs formasi kishilardan boshqa narsalarga ham, xususan jonsiz, ishlatilishi mumkin: *mashinaning g'ildiragi, qozonning qopqog'i, Maxliyoning darsi, bizning uy*. Mana shu jihatdan ona tilimiz ingliz tilidagi III shaxsga kiruvchi so'zlari *he, she, it* ga yaqin keladi, xatto bir xil funksiyani bajaradi desak adashmagan bo'lamiz.

Bundan tashqari egalik affikslari bir vaqtning o'zida ikki ma'noni izohlab keladi. Ular shaxs va sonidir. Misol uchun, *siz* – birlikda va tinglovchiga nisbatlab aytilgan so'zdir. Egalik affikslarining birlik va ko'plik formalari barcha ot yoki otlashgan so'zlarga qo'shilavermaydi. Misol uchun, asosan ko'plik miqdor ma'nosini beradigan so'zlarga ko'plik formalari qo'shiladi va birlik formasining qo'yishning ham ilojisi yo'q: *hammamiz, to'rtovimiz*.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi O'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., "Fan va texnologiya", 2009. – 416 b.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi O'zbek adabiy tili I qism. – T., "O'qituvchi", 1980. – 443 b.
3. N.Turniyozov, A. Rahimov, O'zbek tili. O'quv – uslubiy qo'llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b
4. J. Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev, Ingliz tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1974. – 351 b
5. J. Bo'ronov. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1973. – 279 b